

## “FIN TA’LIM MO`JIZALARI” O`ZBEKISTONDA

*Sabohat Umbarova Hamza qizi*

*Puchon universitetining Toshkent filiali “Ta’lim muassasalarini boshqarish” yo`nalishining 1-kurs magistri  
sabohathamzayevna5@gmail.com*

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada dunyo bo`yicha 2001-yil o`n besh yoshli finlandiya o`quvchilarining asosiy fanlardan tanqidiy fikrlash ko`nikmalarini baholash uchun mo`ljallangan “Xalqaro o`quvchilarni baholash dasturi” ya`ni PISA da eng yuqori natijalarga ega bo`lganligi bilan butun dunyoni hayratda qoldirganligi va buning natijasida esa butun dunyo hamda biz ham “Fin ta’limi”ga qiziqishimiz ortishiga sabab bo`lganligi to`g`risida yoritilmoqda. Bu borada O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev boshlang`ich maktablar uchun “Finlandiya standartlari” asosida darsliklar ishlab chiqishlarini e`lon qilinganligi haqida hamdir. Va bu orqali Respublikamizda ta’lim sifatini yaxshilash borasida olib borilayotgan ta’lim tizimini modernizatsiyalash yoritilib, rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimi taxlili asosida ishlab chiqilgan, ta’limga joriy etish uchun tavsiyalar keltirilgan. Maqola esa aynan mana shunday rivojlangan mamlakatlar qatorida yetakchi bo`lib kelayotgan Finlandiya ta’lim dasturining O`zbekistonga kirib kelishi haqidadir.

**Kalit so`zlar:** fin ta’limoti, qonunlar, qarorlar, PISA, professional ta’lim, pedagogika, kadrlar, metod, materiallar, didaktik, tadqiqotlar, ehtiyojlar, rejalashtirish, tanaffuslar, erkinlik.

## "MIRACLES OF FINNISH EDUCATION" IN UZBEKISTAN

UMBAROVA SABOKHAT KHAMZA kizi

Bucheon University in Tashkent

Master of "Management of Educational Institutions".

[umbarovasabohat2@gmail.com](mailto:umbarovasabohat2@gmail.com)

### ANNOTATION

In this article, in the world in 2001, fifteen-year-old Finnish students have the highest results in the Program for International Student Assessment, or PISA, which is designed to assess the critical thinking skills of basic subjects and that surprised the whole world, and as a result of this, the whole world and we also became interested in "Finnish education". In this regard, the President of the Republic of Uzbekistan, Shavkat Mirziyoyev, announced the development of textbooks for primary schools

based on "Finnish standards". And through this, the modernization of the educational system, which is being carried out in order to improve the quality of education in our Republic, is highlighted, recommendations are made based on the analysis of the educational system of developed countries, and recommendations for introduction into education are presented. The article is about the introduction of the Finnish educational program, which is a leader among such developed countries, into Uzbekistan.

**Key words:** Finnish education, laws, decisions, PISA, professional education, pedagogy, personnel, method, materials, didactic, research, needs, planning, breaks, freedom.

### Kirish

Har bir davlatda ta'lim sohasidagi islohotlar usha davlatning ijtimoiy-iqtisodiy islohatlari bilan uzviy bog'langan va hal qiluvchi yo'nalish hamdir. Davlatimiz rahbarining tashabbuslari bilan ta'lim yo'nalishi ham yildan yilga jadal suratlar bilan o'sib bormoqda. Bu borada esa iqtisodiy tomon ham katta ta'sirga egadir. Shu sababli, mamlakatimizda asta-sekinlik bilan innovasion iqtisodiyotning taraqqiy etishi, aholi daromadlarining oshirilishiga katta e'tibor berilmoqda. Bu orqali esa ta'lim tizimining inson hayotidagi o'rnining oshib borishiga hamda mamlakatda ham asta-sekinlik bilan davr talablariga javob bera oladigan davlat ta'lim muassasalari bilan bir qatorda xususiy ta'lim muassasalari ham tashkil topib borishiga ham sabab bo'lmoqda. Iqtisodiy muammolardan tashqari, bugungi kunda ta'lim tizimidagi yutuqlar bilan birga qatorda kamchiliklarini ham sanab o'tish mumkin. Masalan, o'qituvchilar ta'lim berish jarayonida o'quvchilar qobiliyatini yetarli darajada aniqlash darajasining pastligi, hattoki, ba'zi maktab bitiruvchilarining bilim va ko'nikmalari yetarli darajada emasligi va kelajakda ular tanlagan kasbning yetuk mutaxassisi bo'lishlariga katta to'siq bo'lib kelmoqda. Bu esa shundan dalolat beradiki, nafaqat iqtisodiy balki kadrlarni ham yetarli darajada tayyor emasliklari katta sababdir. Bu ham boshidanoq ta'lim tizimida ba'zi bir nuqsonlar mavjud ekanligidan dalolat bermoqda. Shu sababli, so'ngi yillarda O'zbekiston turli chet el ta'lim tizimlarini o'rganib chiqib, ularni qayta modellashtirish orqali yurtimizga tadbiiq etishmoqda. Bularning natijalari to'xtovsiz nazorat bilan kuzatib borilmoqda. Shunday ta'lim sistemasidan eng samarali deb topilgani, "Fin ta'lim sistemasi"dir. Xo'sh, aslida bu "fin ta'limoti" qanday qilib O'zbekitonga kirib keldi? Uning samaradorlik sabablari nimada? Bunday savollarga javob topish uchun esa, avvalo, Finlandiyadagi ta'lim tizimining tarixiga va uning qanday tuzilganligiga e'tibor qaratishimiz kerak. Ma'lumotlarga ko'ra, Finlyandiya Milliy ta'lim agentligi ta'lim maslahatchisi Yorma Kauppinen va agentlikning o'quv materiallari menejeri Syuzanna Byorkell, shuningdek, Ta'lim inspeksiyasi rahbariyati, mutasaddi xodimlar va vazirlik va idoralar vakillari, uzluksiz ta'lim tizimi konsepsiyalari va o'quv

dasturlarini ishlab chiqishda va ekspertizadan o'tkazishda qatnashgan mutaxassislar, olimlar, 1 000 nafarga yaqin o'qituvchi va metodistlar ishtirok etishdi. Tadbir davomida Finlyandiyalik mutaxassislar tomonidan Finlyandiya ta'lim tizimi, milliy va mahalliy o'quv dasturlari, darsliklar, o'quv materiallari va televideniya orqali dars beruvchi o'qituvchilarni tayyorlash bilan bog'liq qator masalalar bo'yicha atroflicha ma'lumot berildi. Jumladan, Finlyandiya Milliy ta'lim agentligi ta'lim maslahatchisi Yorma Kauppinenning ta'kidlashicha, fin ta'lim tizimida kadrlar tayyorlash bo'yicha "boshi berk nuqta" mavjud emas. Yoshlar erta bolalik davridan boshlab, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb hunar yoki oliy ta'lim muassasalarini bitirganidan keyin ham ta'limni davom ettirishadi.

### Adabiyotlar tahlili

O'zbekistonda Finlandiya ta'limotining kirib kelishi yo'lida bir nechta izlanishlar o'tkazildi. Bu izlanishlarga amerikalik o'qituvchi Timti Uokerning "Finlandiya ta'lim mo'jizasi" kitobi sabab bo'ldi. Uning bu kitobida fin ta'lim tizimi qanday tashkil etilgani, nima uchun o'quvchilar bilan ularning baholarini muhokama qilish kerakligi, bolalarga ixtiyor erkinligini berish va ular bilan birgalikda kunni rejalashtirish, o'g'il va qizlarning mustaqil bo'lishiga qanday yordam berishi, devorlardagi ko'rgazmali materiallarning haddan ziyod ko'pligi o'zlashtirishning pasayishiga olib kelishi, nega tanaffus chog'ida o'qituvchi bolalar bilan birgalikda o'ynashi muhimligi kabi masalalar haqida hikoya qilinadi. Bundan tashqari, kitobda o'zbek maktablarida ham qo'llash mumkin bo'lgan 33 strategiya haqida ham so'z ketadi. Yozuvchining izlanishlari orqali, fin maktablarining muvoffaqiyati zamirida juda oddiy tamoyil-yani o'quv jarayonlarida quvonch mavjudligini bilib olish mumkin. Bundan tashqari, ta'lim tizimining juda sodda ekanligini, qisqa o'quv kuni, yengil uyga vazifalari va kam standartlashtirilgan testlar- ta'lim tizimining faqatgina tashqi qismi ekanligini ko'rish mumkin. Bu kabi oddiy tizim orqali, fin o'quvchilarining olamshumul natijalarini ko'rish mumkin. Masalan, 2001-yilda o'n besh yoshli fin o'quvchilari o'qish, matematika va tabiiy fanlar bo'yicha inqidiy fikrlash ko'nikmalarini baholash uchun mo'ljallangan "Xalqaro o'quvchilarni baholash dasturi" ya'ni PISA da eng yuqori ball olgani butun dunyoni hayratga soldi. bunday yuqori natijadan so'ng, Finlandiya ta'lim tizimi eng yaxshi deb tan olindi va butun dunyo qit'alarida izlanuvchi pedagoglar fin ta'limotining siri nimada ekanligini bilish uchun ularning tajribalarini o'rganishga kirishdilar. Keling endi, ushbu kitobning "maroqli dars o'tishning 33 siri" sarlavhasiga e'tibor qaratsak, u yerda shunday satrlar mavjud: "Siyosatchilar ta'limni o'rni kelsa deyarli urinishlarsiz, shunchaki hamyonni ochib, hal etish mumkin bo'lgan vazifaga aylanishini xohlaydilar. Ular taxminan quyidagicha mulohaza qiladilar: agar ta'lim texnologiyalariga qanchadir sarmoya kiritsak, o'shanda mana shuncha natija

olamiz. Bizning reytinglarimiz birdan osmonga chiqib ketadi, shuning uchun keling, mana bu tugmachani bosamiz”.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yana-da takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar

to'g'risida"gi qarorida Finlyandiyaning ta'lim sohasidagi ijobiy tajribasini mamlakatimiz ta'lim tizimiga hamda Milliy o'quv dasturiga joriy qilish vazifasi belgilangan edi. Mazkur vazifalar ijrosini ta'minlash yuzasidan finlandiyalik ekspertlar va rasmiy doira vakillari bilan qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, joriy yilning 21-aprel kuni Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi Finlyandiyaning Ta'lim va madaniyat vazirligi hamda Milliy ta'im agentligi hamkorligida "Finlyandiya ta'lim dasturlarini o'rganish: ta'lim dasturlari va o'quv materiallari" mavzusiga bag'ishlangan onlayn seminar tashkil etildi. Mazkur seminar natijasida Prezidentimizning tashabbuslari bila 48 ta maktab "Fin ta'lim tizimga" o'tdi. Ulardan olinayotgan natijalar esa yildan yilga o'sib bormoqda. Bu esa albatta bizni quvontirmoqda. Albatta bunday dasturni yo'lga quygandan keyin, ta'lim sohasi vakillari ham yetarlicha bilimga va ma'lumotlarga ega bo'lishlari kerak. Buning ham chorasi ko'rib chiqildi, va Prezidentimizning tashabbusi bilan kadrlarni qayta tayyorlash bosqichida ham fin ta'lim tizimi haqida ma'lumotlar beriladi va ta'lim sistemasining qanday tuzilganligi haqida ham ta'kidlab o'tiladi. Bunda tashqari, so'nggi 2 yil mobaynida, Finlandiya bilan hamkorlikda oliy ta'lim muassasalari ham tashkil etildi va talabalarni jalb etishda davom etmoqda. Mazkur universitetlarda asosan pedagogika fakultetlari mavjud bo'lib, finlandiyalik professorlar o'zlarining ta'lim tizimi haqida ma'lumotlar berishmoqda. Shu bilan bir qatorda, darslar ham o'z qatorida, finlandiya ta'lim sistemasi asosida tashkillashtirilgan bo'lib, talabalar xohishlariga ko'ra masofaviy ta'lim ham olishlari uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratilgan.

### **Usullar va materiallar**

E'tiborimizni Finlandiya Ta'lim va madaniyati vazirligi sayti ma'lumotlariga qaratadigan bo'lsak, mamlakatda ta'lim tizimi bir nechta bo'lgandan tashkil topganligini ko'rishimiz mumkin. Avvalo, ta'lim tizimi maktabgacha ta'lim sohasidan boshlanib, bu tizim pullik bo'lib, narxlar esa aholi qatlamining moddiy holatidan kelib chiqqan holatda belgilanadi. Undan keyingi bosqich esa bir yillik majburiy maktabgacha tayyorlov bosqichi bo'lib, bu bosqichdan boshlab ta'lim bepul hisoblanadi. Ta'limning asosiy bosqichlar ta'ni boshlang'ich ta'lim olti yil davom etib, bolalar yeti yoshdan qabul qilinadi. 7-sinfdan boshlab, bolalar o'rta ta'lim bosqichiga otishadi. Finlandiyada bu bosqich ikki bosqichdan iborat bo'lib, birinchi bosqich boshlang'ich ta'lim bosqichi bilan bir xil. Farqi shundaki, boshlang'ich ta'limda o'qituvchi bitta bo'lsa, o'rta ta'limda bolaning qiziqish va ixtisosligiga ko'ra turli

o`qituvchiladan ta'lim ola boshlaydi. Oxirgi bosqichda esa o`quvchilar asosiy testlarga tayyorlanishadi.

Finlandiya ta'lim tizimining asosini quyidagi 7 ta tamoyil tashkil etadi. Bular; tenglik- o`qituvchi o`quvchilar bir qatorda izlanadi, tanaffuslarda ham birgalikda vaqt o`tkazadilar, bepullik- ta'lim tizimi barcha uchun bepul ekanligi, va hattoki, transport va tushlik ham shular jumlasidan, individuallik- darslarni o`zlashtirishi qiyin bo`lgan o`quvchilar bilan o`qituvchilar yoki yaxshi o`zlashtirgan o`quvchilarning alohida shug`ullanishadi. Shu sababli, finlandiyalik o`quvchilar qo`shimcha darslarga muhtoj emaslar. Amaliylik- o`quvchilar dars jarayonida imtihon uchun emas balki hayotga tayyorgarlik korishadi. Hattoki, o`quvchilar dars davomida jamiyatda duch kelish mumkin bo`lgan masalalar haqida ham suhbatlashishadi va yechim topishga harakat qilishadi. Ishonch va o`qituvchilar salohiyati-barcha maktab, hatto, maktabgacha talim sohasidagi pedagoglar magistratura darajasida bo`lishlari shartligi. Ixtiyoriylik- dars jarayonida qay darajada ishtirok etish o`quvchilar ixtiyorida bo`lishi, mustaqillik- fin ta'lim tizimida o`qituvchilar o`quvchilarni imkon qadar o`zlari bilim va ko`nikmalarni o`zlashtirishlari kerakligiga yo`naltirishadi. Bu kabi tamoyillar bosqichma-bosqich mamlakataimizda ham joriy etilmoqda.

### Natija

O`quvchilarni erkin fikirlashga, darslarga qiziqishlarini ortishiga asos bo`ladigan darajada olib kelish uchun Finlandiya ta'lim texnologiyalari asosida ta'lim tizimini olib borish va tashkillashtirish foydali bo`ladi. O`quvchilarimizni ko`proq imtihonlarga, test sinovlariga tayyorlashdan

ko`ra sog'lom hayotga tayyorlash, bolalar kimdandir yoki nimadandir qo`rqqanidan emas, balki o`zlari qiziqqanidan fanlarni o`zlashtirishi, dars davomida shakllangan yangi g`oya va fikrlarini erkin tadbiiq etishlari va qo`llab-quvvatlashlariga zamin yaratishimiz lozim.

### Adabiyotlar royxati:

1. S.A. Abduvohidov, Z.A. G'aniyev. "Geografiyata'limmetodokasi" SamDU nashiryoti, 2021-328 b
2. O.A.Mo'minov. "Geografiya ta'lim metodikasi", - T.O'qituvchi, 1986 y.
3. Www.uz edu.uz
4. <https://.kun.uz>
5. Timoti Uoker "Finlandiya ta'lim mo`jizasi". Toshkent. 2023 y.
6. Andrews. P., Ryve. A. Hemmi. K. & Sayers. J. (2014). PISA; TIMSS and Finnish mathematics teaching (TIMSS va fin matematikasini o'qitish): an enigma in search of an explanation. In Educ.Stud.Math DOI 10.1007/s

10649-014-9545-3

7. Heidi Krzywacki . Leila Pehkonen and Anu Laine. University of Helsinki

Promoting mathematical thinking in Finish mathematics education

8. <https://www.infofinland.fi/en/living-in-finland/education/the-finnish-education-system>; Finlandiya o'rta ta'lim maktablarini matematika fani o'qituvchilari uchun darslik va o'quv qo'llanmalari.